



**O`TKIR HOSHIMOV IJODIDA QO`LLANILGAN
FRAZEMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Ilmiy rahbar

Ikramova Muhtaram Botirjon qizi

NamDPI o`qituvchisi, filologiya fanlari

bo`yicha falsafa doktori (Phd)

Maxammadova Baxtigul Akmaljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

O`zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O`tkir Hoshimov ijodida qo`llanilgan frazemalar lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Adibning “*Dunyoning ishlari*”, “*Bahor qaytmaydi*”, “*Ikki eshik orasi*” kabi asarlarida uchraydigan frazeologik birliklarning milliy mentalitet, ijtimoiy qadriyatlar, urf-odatlar hamda o`zbek xalqining ruhiy olami bilan bog`liqligi ochib beriladi. Frazemalarning semantik, pragmatik va konnotativ xususiyatlari ko`rib chiqilib, ularning badiiy matndagi obrazlilikni kuchaytirishdagi o`rni yoritilgan.

Kalit so`zlar: Frazema, lingvokulturologiya, frazeologizm, milliy mentalitet, konnotatsiya, semantika.

O`tkir Hoshimov asarlarida xalqona ruh, milliy tafakkur va og`zaki nutq unsurlari yetakchi o`rin egallaydi. Adib tilining asosiy xususiyatlaridan biri — frazeologik birliklarning serqirra va maqsadga muvofiq qo`llanishidir. Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldordir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko`rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma`noviy tabiatga ega bo`lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: *tepa sochi tikka bo`ldi, sirkasi suv ko`tarmaydi* va hokazo¹³⁹.

Frazemalar nafaqat nutqni obrazli qiladi, balki millatning tarixiy xotirasi, mentaliteti va ijtimoiy tajribasini o`zida mujassam etgan madaniy kod sifatida namoyon bo`ladi. Lingvokulturologiya til birliklarini madaniyat bilan uzviy bog`liq holda o`rganadi. O`tkir Hoshimov asarlaridagi frazemalar o`zbek xalqining mehr-oqibatga asoslangan ijtimoiy munosabatlari, urush va qatag`on davrining ruhiy izlari, oila va mahalla qadriyatlari, sabr, shukr va hayo kabi axloqiy tushunchalarini aks ettiradi.

¹³⁹ Sayfullayeva.R. Mengliyev.B va boshqalar. Hozirgi o`zbek tili. O`quv qo`llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – B. 117.



Jumladan, *“Ikki eshik orasi”* romani inson taqdiri va urushning ma’naviy oqibatlarini tasvirlagan yirik asar bo‘lib, unda xalq tiliga xos frazemalar orqali qahramonlar ruhiyati ochiladi.

O‘tkir Hoshimov frazemalarni ko‘pincha inson ruhiy holatini ifodalashda qo‘llaydi. *“U aylanib yong‘oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham o‘sha tomondagi devorning bir cheti o‘pirilganini, ostiga tuproq to‘kilganini ko‘rib, yuragi orqasiga tortib ketdi”*¹⁴⁰. *“Yuragi orqasiga tortib ketdi”* frazemasida qo‘rquvning psixologik holatini ifodalaydi. Bu ibora o‘zbek xalqining hissiy holati orqali tasvirlash an’anasi bilan bog‘liq.

Adib frazemalarni dialogik nutqda faol qo‘llab, qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishini ko‘rsatadi. Jumladan, *“Negadir shu turishida Muqaddam uning ko‘ziga juda issiq ko‘rinib ketdi. Go‘yo uni ming yildan beri tanigandek edi”*¹⁴¹. *“Bahor qaytmaydi”* asarida *“ko‘ziga issiq ko‘rindi”* frazemasida oddiy xalq vakillarining jonli nutqini ta’minlaydi. Xususan, nutqning tabiiyligini ta’minlaydi, qahramonning yoshini, ijtimoiy qatlamini bildiradi va muallif pozitsiyasini yashirin tarzda ifodalaydi. Pragmatik jihatdan frazemalar emotsional-ekspressiv yukni kuchaytiradi.

O‘tkir Hoshimov ijodida quyidagi konseptlar frazemalar orqali beriladi. Xususan, oila konsepti O‘tkir Hoshimov ijodida asosan onaga bo‘lgan cheksiz hurmat, farzandlik burchi va xonadon muqaddasligi orqali namoyon bo‘ladi. *“O‘g‘lim, tezroq uylanib, shu hovlining chirog‘ini yoqib o‘tirsang, armonim yo‘q edi”*¹⁴². **Chirog‘ini yoqmoq** (avlodini davom ettirmoq, uyini obod qilmoq) frazemasida jamiyatning kichik bo‘g‘ini hisoblangan oiladagi muhitni, qarindoshlik rishtalarini va an’analarni ifodalovchi tushunchalar majmuidir. O‘. Hoshimov asarlarida oila "uy-joy" tushunchasidan ko‘ra kengroq, ya’ni ma’naviy qo‘rg‘on ma’nosida talqin qilinadi.

Sabr konsepti yozuvchi asarlarida urush yillari qiyinchiliklari, ayollarning matonati va hayot sinovlariga bardosh berish ma’nolarida qo‘llanadi. *“Onam har qanday qiyinchilikda ham tishini tishiga qo‘yib, bizni och qo‘ymaslikka harakat qilardi”*¹⁴³. **Tishni tishiga qo‘ymoq** (Chidash, matonat ko‘rsatmoq) frazemasida insonning irodaviy sifatlarini, qiyinchiliklar oldidagi ruhiy barqarorligini ifodalaydi. O‘zbek madaniyatida sabr nafaqat chidash, balki ertangi kunga bo‘lgan ishonchni ham o‘z ichiga oladi.

¹⁴⁰ <https://tafakkur.net/urushning-songgi-qurboni/otkir-hoshimov.uz>

¹⁴¹ O‘tkir Hoshimov. "Bahor qaytmaydi". – Toshkent: "Sharq", 2004.-42b.

¹⁴² Hoshimov, O'. Ikki eshik orasi (Roman). – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015. – 112b.

¹⁴³ Hoshimov, O'. Dunyoning ishlari (Qissalar va hikoyalar). – Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 42 b.



Nomus va oriyat konseptlar insonning jamiyatdagi mavqeyi, o'zligini anglashi va axloqiy prinsiplarini himoya qilish bilan bog'liq. "*Oriyatli odam uchun el oldida yuzi shuvut bo'lishdan og'irroq jazo yo'q*"¹⁴⁴. **Yuzi shuvut bo'lmoq**" (sharmanda bo'lmoq, uyalib qolmoq) frazemasi nomus va oriyat konseptlari — shaxsning ichki "men"ini va uning ijtimoiy qiyofasini himoya qiluvchi ma'naviy kategoriyalardir. Bu tushunchalar o'zbek xarakterining eng muhim qirralari hisoblanib, insonni nojo'ya ishlardan tiyib turuvchi asosiy omildir.

Adib frazemalarni elliptik gaplar tarkibida, takroriy parallel konstruksiyalarda va dialogik qisqa replikalarda qo'llaydi. Bu usul xalq og'zaki nutqining ritmini badiiy mantga ko'chiradi.

Yumor va satirani yaratishda frazeologizmlar alohida o'rin tutadi. Bu esa ularning ichki tabiati bilan bog'liq, chunki ko'pgina frazeologik birliklarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching singari ma'no nozikliklari bo'ladi. Frazeologizmlar badiiy asardagi qahramon nutqini, uning so'zlash ohangida yumoristik yoki satirik ishorani ta'kidlash vositasi bo'lib xizmat qiladi¹⁴⁵. Bunday xususiystga ega bo'lgan frazeologizmlardan O'tkir Hoshimov o'z ijodida o'rinli foydalangan: *Ariq qazib bo'lmasa, yer qazib bo'lmasa... o'zimizniyam patagimizga qurt tushib turibdi*¹⁴⁶.

Frazeologik birliklarni badiiy matnda qo'llash juda murakkabdir. Bu birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik, ham uslubiy ma'nolar mavjud. Badiiy matnda, umuman, yozma va og'zaki matnlarda frazeologizmlar qo'llanilganda bu birlik bir qator vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning biri uzual, ya'ni lisoniy xarakterga ega bo'lsa, qolganlari okkazional, ya'ni nutqiy (uslubiy) funksiyadir. Frazeologizmlarning ichki ma'nosi, ichki tabiati har qanday badiiy matnda ro'yobga chiqadi¹⁴⁷.

pinakka ketmoq: ma'nosi: uxlab qolmoq. "*Alimardon yaproqlarning pirpirab uchishini tomosha qila-qila pinakka ketdi*"¹⁴⁸. Uxlab qolishning birdaniga emas, balki sekin-asta, mudroq holatiga o'tish jarayonini ifodalaydi. Odatda charchoq yoki biror narsaga termulib o'tirish natijasida yuzaga keladi.

¹⁴⁴ Hoshimov, O'. Bahor qaytmaydi (Qissa). — Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2017. — 76 b.

¹⁴⁵ Yo'ldoshev B. «Hozirgi frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari». Toshkent. 1993. —25 b

¹⁴⁶ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi:roman.- Toshkent: Meriyus,2017,- 189b

¹⁴⁷ Mamatova Sarvinoz. (2024). O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA IBORALARNING QO'LLANISHI. Лучшие интеллектуальные исследования, 19(5), 186–188. Retrieved from <https://web-journal/article/view/7006>

¹⁴⁸ O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi: qissa va hikoyalar. —T.: Yangi asr avlodi, 2015. —486b.



Uslubiy xususiyati esa badiiy matnda holatni obrazli tasvirlash uchun xizmat qiladi.

og'zi qulog'iga yetmoq: ma'nosi: xursand bo'lmoq. "*Kechqurun og'zim qulog'imga yetkudek bo'lib bir do'ppi yong'oq ko'tarib keldim*"¹⁴⁹. Insonning haddan tashqari xursand bo'lib, jilmayib turgan holatiga nisbatan ishlatiladi. Bu yerda mubolag'a (giperbola) san'ati bor, ya'ni kulgining kengligini tasvirlash orqali ichki quvonch darajasi ko'rsatilgan.

olamdan o'tmoq: varianti: olamdan ketdi. Ma'nosi: o'lmoq. "*Meni shuncha o'limdan asrab qolgan odam shundoq ko'z o'ngimda olamdan o'tdi*"¹⁵⁰. "O'lmoq" fe'lining hurmat va tavoze bilan aytiladigan shakli (evfemizm). Bu ibora insonning bu dunyodagi safari tugab, boqiy dunyoga o'tganiga ishora qiladi va matnga og'ir bosiqlik, qayg'u ruhini beradi.

belida belbog'i bor: ma'nosi: mard. "*Endi... gapning po'stkallasi shu: belimda belbog'im bor deganing ertalab hasharga kelaver*"¹⁵¹. Ushbu frazema milliy mentalitetimiz bilan bog'liq. Belbog' (qiyiqcha) erkaklik va mardlik ramzi hisoblangan. Shuning uchun "beli baquvvat", "mas'uliyatni bo'yniga oladigan", "haqiqiy erkak" ma'nolarini anglatadi.

damini rostlamoq: sinonimi: nafasini rostlamoq. Ma'nosi: to'xtab, nafas olmoq, tin olmoq, dam olmoq. Misol: *Nihoyat, sekin – sekin damini rostladi, hovliga tikilgancha bir tekis, chuqur – chuqur nafas ola boshladi* ("*Bahor qaytmaydi*", 465b). Jismoniy yoki ruhiy zo'riqishdan keyingi tin olish holati. Misolda qahramonning hayajondan keyin o'zini qo'lga olishi yoki jismoniy harakatdan to'xtab nafasini tartibga solishi ifodalangan.

burnini suqmoq: sinonimi: a) bosh suqmoq; b) burnini tiqmoq; s) tumshug'ini tiqmoq (salbiy); d) chovlisini solmoq. Ma'nosi: hamma narsaga aralashmoq. Misol: *Aytyapmanku, burnini suqmagan joyi yo'q edi bu bolaning* ("*Tushda kechgan umrlar*", 43b). O'ziga tegishli bo'lmagan ishga yoki gapga asossiz aralashishni bildiradi. Uslubiy farqi: "Burnini suqmoq" va "bosh suqmoq" nisbatan neytralroq bo'lsa, "tumshug'ini tiqmoq" va "chovlisini solmoq" o'ta salbiy (mensimaslik, g'azab) ma'noni ifodalaydi. O'tkir Hoshimov bu orqali qahramonning xarakteridagi yoqimsiz qirralarni ochib beradi.

og'zidan bol tommoq: ma'nosi: maqtamoq. Misol: *Matematika o'qituvchisi Hakimov katta tanaffusda og'zidan bol tomib yaponlarni maqtabdi* ("*Tushda kechgan umrlar*", 82b) Biror narsani yoki shaxsni juda berilib, ijobiy

¹⁴⁹ O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. qissa va hikoyalar / –Toshkent:Yangi asr avlodi, 2018. –21b.

¹⁵⁰ O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi:roman. –Toshkent: Meriyus, 2017. –B. 189.

¹⁵¹ O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi:roman. –Toshkent: Meriyus, 2017. –B. 61.



bo'yoqlar bilan, shirin tilda tasvirlash. Bu yerda "bol" so'zi nutqning yoqimlilikiga ishora qilmoqda.

qo'y og'zidan cho'p olmoq: ma'nosi: nihoyat darajada beozor, mo'min
Misol: *To'laganova qo'y og'zidan cho'p olmagan farishta* ("Tushda kechgan umrlar", 226b). Bu frazema o'ta yuvoshlik va beozorlikni bildiradi. Hatto qo'y kabi yuvosh hayvonning og'zidagi rizqiga ham tegmaydigan darajada mo'min-qobil insonlarga nisbatan ishlatiladi.

O'tkir Hoshimov ijodida qo'llangan frazemalar lingvokulturologik jihatdan semantik qatlamga ega bo'lib, ular milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi konseptual tizimni birliklaridir. Yozuvchi frazemalardan nafaqat stilistik madaniy kod, psixologik portret yaratishda foydalanadi. Somatik, emotsional-ekspressiv va etnografik mazmunli iboralar qahramonlarning ichki dunyosini ochish, milliy koloritni kuchaytirish, badiiy matnning lingvopoetik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'tkir Hoshimov asarlaridagi frazeologizmlar o'zbek xalqining konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar bo'lib, ularni lingvokulturologik yondashuv asosida o'rganish o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O' Hoshimov. Ikki eshik orasi. — Toshkent: Sharq, 2018. — 624 bet.
2. O' Hoshimov. Dunyoning ishlari. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. — 320 bet.
3. O' Hoshimov. Bahor qaytmaydi. — Toshkent: O'qituvchi, 2017. — 192 bet.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. — Toshkent: O'qituvchi, 1992. — 384 bet.
5. Vohidov E. O'zbek tili frazeologiyasi masalalari. — Toshkent: Fan, 1985. — 240 bet.
6. Safarov Sh. Lingvokulturologiya. — Toshkent: Akademnashr, 2019. — 256 bet.